

**AXBOROT TEKNOLOGIYALARI
SOHASIDAGI TALABALARDA CHET TILIDAGI
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALAR USULIDAN
FOYDALANISH**

*Tadzhimova Shaxnoza Rashidovna, Ajiniyoz nomidagi NDPI
doktoranti*

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТОВ В
РАЗВИТИИ ИНОЯЗЫЧНОЙ
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У
СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

*Таджимова Шахноза Рашидовна, докторант НГПИ
имени Ажинияза*

**USING THE PROJECT METHOD IN THE
DEVELOPMENT OF STUDENTS' FOREIGN
LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE IN
THE FIELD OF INFORMATION TECHNOLOGIES**

*Tadzhimova Shakhnoza Rashidovna, Doctoral student of NSPI
named after Ajiniyaz*

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot texnologiyalari yo'naliishida tahsil olayotgan talabalarda chet tilidagi kommunikativ kompetensiyani rivojlanirishda interfaol o'qitish usullarining, xususan, loyihalar usulining o'rni yoritilgan. Talabalarning mustaqil ish shaklida tayyorlagan amaliy loyihasi misoldida bu metodning samaradorligi asoslab berilgan. Maqolada loyiha faoliyatining o'quvchilar nutq faoliyati, muloqot ko'nikmalarini va jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: chet tili, kommunikativ kompetensiya, interfaol usullar, loyiha metodi, axborot texnologiyalari, mustaqil ish

Abstract: This article explores the role of interactive teaching methods, particularly the project-based method, in developing foreign language communicative competence among students majoring in information technology. The effectiveness of this method is demonstrated through a student-led independent project to create a university newspaper. The article highlights how project-based learning contributes to the development of speaking skills, communication abilities, and teamwork competence.

Keywords: foreign language, communicative competence, interactive methods, project-based learning, information technology, independent work.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль интерактивных методов обучения, в частности, проектного метода, в развитии иноязычной коммуникативной компетенции у студентов информационно-технологических направлений. На примере самостоятельной работы студентов по созданию университетской газеты доказывается эффективность данного метода. В статье подчеркивается влияние проектной деятельности на развитие речевых навыков, коммуникативных умений и навыков командной работы.

Ключевые слова: иностранный язык, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, проектный метод, информационные технологии, самостоятельная работа.



<https://orcid.org/0009-0008-3973-6310>

e-mail:
shakha4114@gmail.com



KIRISH. Globallashuv sharoitida mehnat bozorida eng ko‘p talab qilinadigan mutaxassislar axborot-texnologiya sohasidagilar bo‘lmoqda, bu esa bunday mutaxassislar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamiga bo‘lgan talablarning o‘shishiga olib keladi (masalan, shaxsiy fikrini aniq ifodalash, o‘zaro samarali munosabatda bo‘lish, suhbatdosh bilan til topishish va boshqalar). Ushbu to‘plamdagisi asosiy kompetensiyalardan biri chet tilidagi kommunikativ kompetensiya bo‘lib, u kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun asos sifatida qaraladi. Ushbu kompetensiyaning shakllanganligi texnika oliv ta’lim muassasasi bitiruvchisining madaniyatlararo darajada chet tilida muloqot qilish, kasbiy yo‘naltilgan muloqot vaziyatida boshqa mamlakatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish qobiliyatini nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODOLOGIYA. Davlat standartiga muvofiq, chet tilidagi kommunikativ kompetensiya har qanday chet tilini o‘qitish mazmunining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, chet tilida muloqotni so‘zlashuv tilidan past bo‘lmagan darajada amalga oshirish qobiliyatini nazarda tutadi. Ye.N.Solovova ushbu tushunchani quyidagicha ta’riflaydi: "O‘quvchilarga kommunikativ maqsadga muvofiq va muvaffaqiyatli nutqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga qodir va tayyor bo‘lish imkonini beradigan til ko‘nikmalar, nutq qobiliyatları va ijtimoiy-madaniy bilimlarni egallashning ma’lum bir yosh uchun zarur va yetarli darajasi"[8]. S.N.Pavlova ko‘plab tadqiqotchilarning fikrlarini tahlil qilib, chet tilidagi kommunikativ kompetensiya tushunchasiga "chet tilidagi muloqotga tayyorlik va qobiliyat, chet tildagi nutqni og‘zaki va yozma shaklda idrok etish va tushunish, o‘z fikriy niyatlarini chet tilida adekvat va o‘z vaqtida ifodalash" degan xulosaga kelgan [7]. S.A.Chichilanova texnika oliv ta’lim muassasasi talabalarining chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini "bir tilli yoki ikki tilli muloqotning psixologik omillariga qarab o‘z nutqiy xatti-harakatlarini kommunikativ jihatdan maqbul va maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishga imkon beradigan til, nutq, ijtimoiy-madaniy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning ma’lum darajasi" deb hisoblaydi [9]. Yuqoridagi tushunchalarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, chet tiladgi kommunikativ kompetensiya - bu chet tilida muloqot qilish, chet

tilidagi nutqni tushunish, o‘z fikr va mulohazalarini boshqa tilda to‘g‘ri ifodalash qobiliyatidir. Ushbu tushunchalarga tayanib va Yu.A.Bushmanovaning fikriga qo‘shilgan holda, biz axborot texnologiyalari (AT) sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini AT talabalarining texnik ingliz tili orqali chet tilidagi muloqotga kirishish qobiliyati va tayyorligi sifatida aniqladik [4, 12-b.], bu kompyuter bilan kasbiy muloqotga va uning professional AT mutaxassislar hamjamiyatidagi muloqotiga yordam beradi.

Shubhasiz, ta’lim jarayonida chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlanirish samaradorligi ko‘p jihatdan to‘g‘ri tanlangan o‘qitish usullariga bog‘liq. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aynan interfaol o‘qitish usullari chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishda katta imkoniyatlarga ega. Xususan, O‘zbek va Qoraqalpoq talim muassasalarida ingliz tilini o‘rgatish bo‘yicha olib borilgan Flipped Classroom (teskari sinf) modeli tajribasi ham interfaol yondashuvlarning samarali usuli sifatida o‘zini ko‘rsatdi, bu model talabalarni mustaqil fikrlashga, tayyorlov materiallari bilan ilgari tanishishga va mashg‘ulot vaqtida faol muloqotga undaydi [2]. Interaktivlik ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari uchun o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini anglatadi (o‘qituvchi - talaba, o‘qituvchi - talabalar guruhi, juftlikda, kichik guruhlarda yoki individual ishslash). Interfaol ta’lim talabalarining bilish faoliyatini shu tarzda tashkil etishni ifodalaydi-ki, ular bilish jarayoniga maksimal darajada jalb etilishi, tushunish va mulohaza yuritishi, ushbu ta’lim jarayonida mavjud bo‘lgan barcha narsalarni almashish orqali yangi tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak [5, 19-21-b.]. Interfaol metodlar o‘quvchilarni passivdan faol ishtirokchilarga o‘zgartiradi, nutq ko‘nikmalarini rivojlanirishga imkon berish uchun hayotiy va professional jihatdan dolzarb ssenariylar qo‘llaniladi [3].

Interfaol ta’lim usullarga munozaralar, ishbilarmonlik va rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, intervyular, loyihalar usuli, taqdimotlar (ma’ruzalar) tayyorlash, nutqlar va boshqalar kiradi. Bu usullar real holatni modellashtiradi, kommunikativ vaziyatlar, aniq kommunikativ vazifani hal qilishning muqobil usullarini topishga yordam beradi.

Interfaol o‘qitishning eng samarali usullaridan biri loyihalar usuli bo‘lib, u o‘quvchilarga amaliy

masalalarni yechish jarayonida mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatini beradi. U nafaqat kuchli, balki zaifroq o‘quvchilarga ham o‘zini ko‘rsatish va muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi, chunki jarayon muammoli masalalarni yechishda nafaqat leksik vositalarni va grammatick tuzilmalarni beixtiyor eslab qolish, balkim talabalarning ijodiy fikrlashi, tasavvurni rivojlantirishi rag‘batlantiriladi, fikrlarni erkin ifoda etish uchun sharoit yaratiladi [6]. Nukus davlat texnika universiteti 1-kurs IT-yo‘nalishi talabalaridan so‘rovnama olish jarayonida 52 talabadan 42 tasi mustaqil ishlardan eng samarali va eng qiziqarli sifatida loyihamo usulini tanlashgan. Bu degani ushbu usul talabalarimiz uchun eng qiziqarli mashg‘ulot turlaridan biriga aylandi, uni yaratish jarayonida talabalar o‘z sohalari bo‘yicha yangi narsalarni o‘rganishga katta qiziqish bildiradilar. Amaliyat shuni ko‘rsatadiki, loyihamo ustida ishslash jarayonida talabalar birgalikda ishslash, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, vaqtini boshqarish va ishni rejalashtirish, fikr almashish va tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z qarashlarini himoya qilish va natijalarini taqdim etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

Loyihalash metodini semestr, mavzular sikli yoki ma’lum bir bo‘lim oxirida, talabalar yetarli bilim va so‘z boyligiga ega bo‘lganda qo‘llash tavsiya etiladi. U fan, texnika, texnologiya va ijodning turli sohalaridagi bilimlarni birlashtirishni talab qiladigan muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, bu nafaqat turli xil o‘qitish usullari va vositalarini qo‘llashni, balki samaradorlikka e’tibor qaratishni ham o‘z ichiga oladi: loyiha ishining natijasi aniq mahsulot bo‘lishi kerak. Ya’ni, agar loyiha nazariy bo‘lsa, unda qo‘yilgan vazifaning asosli yechimini ishlab chiqish, amaliy ish bo‘lsa, o‘quv jarayonida yoki real hayotda qo‘llash uchun yaroqli mahsulotni yaratish mumkin.

NATIJALAR. Loyihalar usulining misoli sifatida Nukus davlat texnika universiteti 1 kurs talabalarining orasida mustaqil ishslash uchun berilgan Universitet gazetasini yaratish topshirig‘ini keltiramiz. Bunda talabalarga 20 soat vaqt ajratilgan va ular kichik guruhlarga (4-5 talabadan iborat 8 guruhga) ajratilgan. Ushbu gazetada kamida 4 bo‘lim (sport yangiliklari, universitet yangiliklari, universitet faxriylari, mashhurlar bilan suxbat va boshqalar) bo‘lishi va guruhlarning barcha a’zolari qatnashishi shart edi. Bu mustaqil ish semester

oxirida qabul qilindi va natijasi nafaqat o‘qituvchilarga balkim talabalarning o‘zlariga ham yoqdi. Baholashda gazetaning dizayni, bo‘limlari, ichidagi ma’lumotlar, talabalarning qatnashganlik darajasi va loyiha ishini himoya qilingalik kriteriyalariga e’tibor qaratildi.

Keyingi misol sifatida “Inventions” mavzusida talabalarga “Eng foydali ixtiro” va “Eng bema’no ixtiro” mavzusida poster yaratish topshirig‘I berilgan. Lekin bu topshiriq faqatgina 3 guruxda jami 38 talabada sinaldi. Talabalar juftlikda ishslashdi. Bu topshiriqni bajarish uchun talabalar izlanishi, nima uchun eng foydali va eng bema’no elanligni dalillash kerak edi. Posterni qo‘lda chizish va juftlikda himoya qilish topshirig‘i qo‘yildi. Bu mustaqil ishga 10 soat vaqt ajratildi. Ushbu topshiriqni bajarish o‘quvchilarning juftlikda ishslash, mustaqil ravishda materiallar qidirish, yig‘ish va uni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA XULOSALAR. Ushbu usuldan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, loyihamo talabalar tomonidan qabul qilinadi, ular loyihamo katta ishtiyoq va zavq bilan bajaradilar. Loyiha ustida ishslash jarayonida ularda muammolarni hal qilish (turli xil vazifalar orqali), jamoada ishslash (guruhsda ishslash va juftlikda ishslash orqali), tadqiqot ko‘nikmalari (loyihalarni tayyorlash orqali), taqdimot ko‘nikmalari (sinfda amaliyat o‘tkazish orqali), tanqidiy fikrlash (matnlar, internet va boshqalardagi g‘oyalar bilan ishslash orqali), intellektual xabardorlikni rivojlantirish (mavzular bo‘yicha bir nechta nuqtai nazarlar orqali) va mulohaza yuritish ko‘nikmalari (dalillarni rejashtirish va fikr bildirish orqali) kabi ko‘chma ko‘nikmalar rivojlantirildi. Talabalar kuzatish, aniqlash va tanib olish, taqqoslash, ma’nolarni muhokama qilish, noaniqlik bilan kurashish yoki ularga toqat qilish va o‘z nuqtayi nazarlarini himoya qilish haqida xabardor bo‘lishdi. O‘qitilayotgan 52 talabalarning 35 foizida (18 nafar talaba) oldin o‘ziga ishonch, boshqa talabalar oldida gapirish qo‘rqinchi baland bo‘lgan bo‘lsa, interaktiv usullarni doimiy ravishda qo‘llash ushbu ko‘rsatkichni 15 foizga (12 talabaga) kamaytirdi.

Shunday qilib, chet tili mashg‘ulotlarida chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning interfaol usullari har doim talabalarda katta qiziqish uyg‘otadi, murakkab axloqiy muammolarni hal qilishga, o‘z nuqtayi

nazarini asoslash va ifodalashga o‘rgatadi, ma’lumotlarni izlash va tizimlashtirish, guruhda muloqot qilish va qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimbetova M. The impact of authentic texts in second language instruction. – 2024.
2. Bennett G., Borasheva A., Ruzmatova D. Implementing flipped classrooms in Uzbek and Karakalpak EFL teacher education // Vinogradova P., Shin J.K. (eds.) Contemporary foundations for teaching English as an additional language:
3. Nuratdinova J. TEACHING ENGLISH WITH INTERACTIVE METHODS FOR AGRICULTURAL STUDENTS //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2024. – Т. 12. – №. 63. – С. 18-21.
4. Бушманова Ю.А. Развитие иноязычной коммуникативной компетенции будущих программистов в информационно-коммуникационной профессиональной среде. Автореф.дисс ... канд.пед.наук: 13.00.02. Екатеринбург. 2015. - С.12

